

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14426936>

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA HAYOTIY VOQELIK

To‘raqulova Sabina Ulug‘bek qizi

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Obidova Ozoda Obidjon qizi

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Tulishova Gulzina Ravshanovna**

JDPU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning asosan "Sarvqomat dilbarim", "Oq kema", "Qiyomat" kabi asarlaridagi hayotiylik, asar kompozitsiyasi, syujet va uning turlari, konflikt, obraz va obrazlilik, shakl va mazmun kabi jihatlari ham tahlil qilingan. Asarning umumiy ko‘rinishi, har bir qahramon va voqeliklarga nisbatan alohida to‘xtalish, bugungi kun bilan bog‘liqlik jihatlari tasvirlangan.

Kalit so‘zlar Sarvqomat dilbarim, Asal, Ilyos, Xadicha, Jontoy, Boytemir, Pomir, Tyanshan, avtobaza, qiyomat, bo‘ri, Avdiy Kallistratov, Issiqko‘l.

ABSTRACT

In this article, Chingiz Aitmatov’s works such as "Sarvqomat dilbarim", "Aq kema", "Qiyamat" are analyzed. The general view of the work, special attention to each character and reality, aspects of connection with today are described.

Key words Sarvkomat Dilbarim, Asal, Ilyas, Khadicha, Boytemir, Pamir, Tyanshan, Autobaza, Qiyamat, Bori, Avdiy Kallistratov, Issyk-Kul.

Kirish

Har bir ijodkorning yaratgan asarlari u haqida ko‘plab ma’lumotlar olishimizga yordam beradi. Ijodkor o‘zining yashagan muhiti, Vatani, dunyoqarashini asarlarida aks ettiradi. Shunday ekan Chingiz Aytmatov ham Qirg‘izistonda tavallud topgan bo‘lib ko‘plab asarlarida ona Vatanini, uning aholisini, muhitini yoritgan. Masalan, "Oq kema", "Qiyomat", "Sarvqomat dilbarim", "Jamila" va h.k kabi asarlarida aynan Qirg‘iz xalqini, hududigagi tog‘larni, yashash sharotini aks ettirgan. Aynan biz Issiqko‘lni yuqoridagi asarlarning barchasida uchratishimiz mumkin. Shuningdek, uning zamoni qanday bo‘lganini ham bilishimiz mumkin. Masalan, G‘afur G‘ulomning asarlarini o‘qiganimizda birinchi jahon urushi ekanligini darrov anglaymiz va ijodkor shu davrlarda yashagan ekanligi haqidagi ma’lumotga ega bo‘lamiz. O‘tkir Hoshimovning asarlarni o‘qiganimizda esa ikkinchi jahon urushi paytlarida yashagan ekanligini, aholini o‘sha paytdagi turmush tarzini, urushning qay tarzda yakunlanganini va undan keyingi holatlarni asarlarida tasvirlagan. Chingiz Aytmatovning asarlarida ham xuddi shunday qirg‘iz xalqining milliy an’ana va urf-odatlarini bilishimiz mumkin. Xususan, "Sarvqomat dilbarim" qissasini tahlil qiladigan bo‘lsak, voqelar rivoji asar ekspozitsiyasi Tyanshan, Pomir tog‘lari, Issiqko‘l kabi hududlar hisoblanadi. Qissa hayotiy-maishiy bo‘lib, qahramonlarni bugungi kunda ham uchratishimiz mumkin va bu dolzarb muammolardan biri ham hisoblanadi. Ilyos va Asalning turmushi, Ilyosning muqaddas atalmish oilasiga xiyonat qilib Xadicha bilan birga ma’lum bir muddat Toshkentga borib yashashi, so‘ng o‘z aybiga iqror bo‘lib farzandi Samadni eslab yana qayta eski ovuliga qaytganida Asalni uchratmasligi, Asal ham farzandi bilan yo‘l masteri Boytemirga turmushga chiqib baxthi hayot kechirishi bugungi kunda ham ayrim oilalarda bunday voqealarning guvohi bo‘lamiz.

"Qiyomat" romanida ham Ernazar va ayoli Gulimxonning, Bo‘ston va Orzigelning taqdirlari ham Ilyos, Asal va Boytemirning hayotiga ma’lum bir tomondan o‘xshaydi. "Sarvqomat dilbarim" asari shakl jihatdan qissa bo‘lib, mazmun jihatdan esa hayotiy-maishiy voqealar tasvirlangan deb bilamiz. Qissaning bosh qahramonlari

Asal, Ilyos, Samad, Xadicha, Alibek, Jontoy, Boytemir, Gulbara va h.k kabilar hisoblanadi. Qissa jurnalistning hikoyasi bilan boshlanadi va qolgan o‘rinlarda ham qahramonlar tilidan hikoya qilinadi. "Haydovchi hikoyasi", "Yo‘l masterining hikoyasi" kabilardan iboratdir. Shu orqali asar yaratilgan. Shuningdek, muqaddima va xotimadan ham tashkil topgan. Asarda konflikt ham mavjud bo‘lib, konflikt o‘zi bu lotincha to‘qnashuv degan ma’noni anglatadi. Badiiy asar personajlarining o‘zaro kurashlari, qahramonning o‘z muhiti bilan ziddiyatlari, shuningdek, uning ruhiyatida kechuvchi qarama-qarshiliklar tushuniladi. Badiiy asar voqelikni badiiy aks ettingani va uning markazida inson obrazi turgani uchun ham insonning real hayotida mavjud konfliktlarning bari unda badiiy aksini topadi. Konflikt turlari ham bo‘lib, xarakterlararo konfliktga Ilyos va Jontoy munosabatini keyinchalik o‘z o‘rtog‘i Alibek bilan ham ziddiyat yuga kelgan. Ichki konfliktga esa Ilyosning o‘zi xohlamagan ravishda Xadichaning eshigini tagiga borib qolishi kabilarni misol qilishimiz mumkin.

"Qiyomat" romanida esa Hazrati Isoning xalq bilan munosabati muhit konfliktini kelib chiqqanligini ko‘rishimiz mumkin. Avdiyning nashavand jamoadoshlari o‘rtasidagi munosabat, Bo‘ston va Bozorboy orasidagi munosabat bularning barchasi qahramonlar o‘rtasidagi konfliktni yuzaga keltirgan. Shuningdek, bo‘rilar obrazi keltirilgan bo‘lib, juft bo‘rilar Toshchaynar va Akbara kabi bir-biridan baquvvat bo‘lgan bo‘rilar tasviri ham keltirilgan. Aynan bo‘rilar va xalq o‘rtasida ham qarama-qarshilik yuzaga kelgan. Bozorboy bo‘rilarning nasl qoldirish uchun Akbara dunyoga keltirgan bo‘rivachchalarni o‘g‘irlagani uchun Akbara va Toshchaynarning g‘azabi kelib tinch aholiga hujum qilishadi. Har tunda qo‘y-qo‘zilarni bo‘g‘izlab ketishadi va tog‘da uchragan odamlarga ham hujum qiladigan odat chiqarishadi. Asar so‘ngida Akbara ham Bo‘stonning yolg‘iz naslini davom ettiradigan 2 yoshli boladi Kenjashni o‘g‘irlab ketadi va Bo‘ston esa bo‘rini otaman deb o‘z jigaporasining yuragini ilma teshik qilgani o‘quvchining qalbini larzaga soladi. Asarni o‘qish davomida ko‘plab baxtiqaro insonlarning hayoti tasvirlanganini ko‘ramiz.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir ijodkorning asar yozishda o‘z uslubi bo‘lganidek, Chingiz Aytmatovning ham o‘z uslubi bo‘lib, hayotda ham uchratish mumkin bo‘lgan voqealarni yozgan. Yaratgan asarlari kitobxon e’tiborini tortadi va qo‘ldan qo‘ymay o‘qiladigan asarlar sirasiga kiradi. “Qiyomat” romanida ezgulik va insoniylikning, yaxshilik va to‘g‘rilikning,adolat va haqgo‘ylikning, Qiyomat qoyim darajasiga tushayotgan holatlari tabiat, jamiyat, inson va iymon muammolarini aks ettirish orqali ochib berilgan. Tabiatni poymol etish tufayli ro‘y berayotgan qiyomat darajasidagi payhonliklar, xunrezliklarni amalga oshirayotgan ijtimoiy kuchlar, razil odamlar bor. Akbara bilan Toshchaynarga tabiatda yashash uchun hatto boshpana qolmasligi, tog‘da noyob konga yo‘l ochilishi munosabati bilan ularning uyasi joylashgan qamishzorga o‘t qo‘yilishi tufayli besh bo‘ri bolasining nobud bo‘lishi, bo‘rilar toqqa qochgandan so‘ng esa bu yerda yangi dunyoga kelgan to‘rt bo‘ri bolasining endi razil, insoniy xislatlardan mahrum Bozorboy tomonidan o‘g‘irlanib, aroq olish uchun sotib yuborilishida bularni ko‘rish mumkin. Asardagi eng murakkab obraz Avdiy Kallistratovdir. U Xudoga, dinga chin dildan ishonadi. Biroq uning fikricha, shu vaqtgacha insoniyat tafakkurida bo‘lib kelgan Xudo eskirgan, shu bois uni yangilash, zamondosh Xudo yaratish kerak. Bu fikridan, o‘zi aytishicha, o‘tda kuydirsalar ham qaytmoqchi emas. “Asr bo‘yi qotib qolgan fikrlarni o‘zgartirish, aqidabozlikdan qutulib, inson ruhiga Xudoni anglashda hurlik berish va Xudoni inson borlig‘ining eng oliy zuhroti deb bilish” Avdiyning din va Xudo haqidagi qarashlarining asosini tashkil etadi. Aytmatov asarda ezgulik mohiyatini rang-barang: ilohiy, falsafiy, insonparvar asoslar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvirlay olgan mahoratli, ayni paytda chuqur bilim va mantiqqa ega yozuvchidir.

ADABIYOTLAR

1. D.Quronov "Adabiyot nazariyasi asoslari" - T: Noshir 2019.
2. Ch. Aytmatov "Sarvqomat dilbarim" - T: 2019
3. Ch. Aytmatov "Qiyomat" - T: 2020
4. <http://akmbtlib.unaux.com/product/sarvqomat-dilbarim-chingiz-aytmatov/>
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/turk/chingiz-aytmatov-sarvqomat-dilbarim-qissaning-1-qismi.html>
6. <https://daryo.uz/2019/10/07/odamlar-borilar-va-gunohlar-qiyomat-romani-haqida>